

NODIRA HAYOTI VA IJODI. G'AZALLARI TAHLILI**Ibrohimova Dilshodaxon**

*Fargʻona davlat universiteti Filologiya
va tillarni oʻqitish oʻzbek tili yonalishi
3-kurs 23.87-guruh talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Nodirabegimning hayoti va ijodi keng yoritilgan. Unda shoiraning maʼrifatparvarlik faoliyati, davlat arbobi sifatidagi xizmatlari, adabiy merosining janr xususiyatlari hamda gʻoyaviy-badiiy ahamiyati ochib beriladi. Nodiraning muhabbat, vafo, insoniylik kabi yuksak fazilatlarni ulugʻlovchi sheʼrlari tahlil qilinib, ularning mumtoz adabiyotimiz rivojida oʻrni asoslab berilgan. Maqola oʻquvchilarga Nodira shaxsiyati va ijodiy merosini chuqurroq anglash imkonini beradi.

KALIT SOʻZLAR: Nodira, Nodirabegim, Mohlaroyim, mumtoz sheʼriyat, gʻazal, devon, tasavvuf, muhabbat, vafo, maʼrifatparvarlik, Qoʻqon xonligi, Umarxon, aruz vazni, muxammas, tarjiʼband.

KIRISH

Oʻzbek mumtoz adabiyotida ayol shoirlar ijodi alohida oʻrin egallaydi. Shulardan biri — Nodirabegim boʻlib, u nafaqat isteʼdodli shoir, balki dono davlat arbobi va maʼrifatparvar sifatida ham tarixda munosib iz qoldirgan. Nodira ijodi Sharq adabiy anʼanalarini davom ettirib, muhabbat, insoniylik, vafo, sabr, sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etishi bilan ajralib turadi.

Shoiraning hayot yoʻli murakkab siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u Qoʻqon xonligidagi madaniy hayot rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan. Nodira oʻz asarlarida ayol qalbining nozik kechinmalarini, jamiyatdagi maʼnaviy muammolarni va ilohiy ishq gʻoyalarini nafis badiiy tasvirlar orqali ifodaladi. Ushbu maqolada Nodiraning hayoti va ijodi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Nodirabegim Hayoti va Ijodi shoir davlat arbobi maʼrifatparvar 1791

Andijon shahrida tavallud topgan 1841 yili Qoʻqon shahrida vafot etgan 15661 marta koʻrildi Nodirabegim asarlari: Barcha asarlari Gʻazallari Yakpora gʻazallari Tarjeʼbandlari Muashsharlari Nodira (taxallusi; ismi Mohlaroyim) (1792, Andijon — 1842, Qoʻqon) — shoir, maʼrifatparvar va davlat arbobi. «Komila» va «Maknuna» taxalluslari bilan ham sheʼrlar yozgan. Otasi Andijon hokimi Rahmonqulbiy — ming qabilasidan, Fargʻona hukmdori Olimxonning togʻasi. Olimxon ukasi Umarxonga Margʻilon hokimligini beradi va uni 1807 yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda sheʼr yozishni mashq qiladi, shoir Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush yoʻldoshi Amir Umarxon ham Amiriy

taxallusida ijod qilgan. 1822 yilda Umarxon vafot etib, uning o'g'li, 14 yoshli Muhammad Alixon (Ma'dalixon) taxtga ko'tarildi. Lekin davlatni, asosan, Nodiraning o'zi idora qildi. U madaniyat va san'atni rivojlantirishga intildi. Nodiraning zamondoshi qozi Abdunabi Xotifning tamomlanmay qolgan voqeaband dostonida Nodiraning hayoti va ijtimoiy faoliyati ishonarli dalillar bilan ko'rsatib berilgan: «Asar yozishdan maqsadim Nodiraning oqila, fahmli, ilm va so'zning qadriga yetadigan donishmand ayol ekanligini ko'rsatishdir... Umarxon vafotidan so'ng bu iffat sadafining injusi kunlarni hasratu firoq bilan shu tariqa o'tishini noshukurlik deb bildi. U gulistondek Chahorchaman bog'iga borib, Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirtirib keldi». Nodira bir necha kitoblarni ko'chirtirdi va shoirlarni yangi-yangi asarlar yozishga tashviq qildi. Shoir devonlarning chiroyli yozilishi, muqovasining bezatilishini o'zi shaxsan ko'zdan kechirib turgan. U yaxshi ishlagan kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni «Zarrin qalam»lik mansabiga ko'targan. Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e'tibor bergan. Go'ristoni kalondagi Madrasai Chalpaki, Taqagarlik rastasidagi Mohlaroyim madrasasini bino ettirgan. Buxoro amiri Nasrullo 1842 yilda Qo'qonga bostirib kirib, Ma'dalixonni, ukasi Sulton Mahmudxonni, 14 yashar o'g'li Muhammad Aminxonni va Nodirani fojiali ravishda o'ldiradi. Nodiraning adabiy merosi o'z g'oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtai nazaridan mumtoz she'riyatning go'zal namunalaridandir. Uning to'la bo'lmagan o'zbekcha devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi (inv.? 4132). Devonga Nodiraning 109 (yoki 1704 misra) g'azali kiritilgan. Nodiraning o'zi yozgan debochada tarjimai holiga oid ba'zi muhim ma'lumotlar berilgan. 19-asrda ko'chirilgan, hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix muzeyi arxivida saqlanayotgan devonda Nodiraning «Komila» taxallusi bilan yozgan 19 (328 misra) g'azali borligi aniqlangan. 1962 yilda Namanganda shoiraning mukammal devoni topildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan (inv. ? 313) bu devon shoiraning merosini to'liq qamrab olgan, deyish mumkin. Bunda shoir yozgan debocha mukammal berilgan. Devonda shoiraning «Nodira» taxallusi bilan yozgan 180 she'ri jamlangan (shulardan 136 tasi o'zbek tilida, 44 tasi tojik tilida). Jumladan, 11 muxammas, 2 musaddas, 1 musamman, 1 tarji'band, 1 tarkibband va 1 firoqnoma ham bor. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida Nodiraning «Maknuna» taxallusi bilan yozilgan, 333 g'azaldan iborat bir devoni mavjud (inv. ? 7766). Bugungi kunda biz Nodiraning o'zbek va fors-tojik tillarida yaratgan 10 ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz. Nodira she'riyatining asosini lirika tashkil etadi. Nodira muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. U go'zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, o'hu fig'onlarini kuyladi. Shoir o'zini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning hayotga umid bilan qarashi, ezgu istaklari va orzusi aks

etgan. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog‘du ekanligini kuyladi: Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et! Nodiraning muhabbat tushunchasi chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muhabbat shaxsiy tuyg‘ular doirasidan yuqori ko‘tarilib, odamiylikni chuqur idrok qilish vositasiga aylantiriladi. Nodira insonning eng yuksak fazilati vafodorlikda deb biladi. Shoiraning fors-tojik tilidagi mebosh radifli g‘azalida vafo mavzui keng doirada qalamga olinadi. Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi xislatlarni ma‘rifat, ya‘ni Xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharaflı xislatlarni o‘z ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko‘ngil ganjinasida asramog‘ini obrazli qilib tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo‘lar ekan, u riyo yo‘liga kirib ketadi. Nodira o‘z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo‘nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo‘lidagi ruhiy dunyosini ham juda go‘zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira she‘rlarida islom ruhi, tasavvuf ta‘limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug‘ini qidiradi. Nodira saroyda yashasa ham, o‘zini ma‘naviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi. Shuning uchun ham u g‘azallaridan birida: «Meni saltanat masnadida ko‘rib, gumon etmang ayshu farogat bilan», deydi. Nodira olimlar, shoirlar, ayniqsa, shoiralarni o‘z himoyasiga olgan. Shoira o‘z devonlarining «hamnishin olima afifalar, fozila hamsuhbat sharifalarning maslahatlari va tashabbuslariga ko‘ra jamlangani»ni o‘zbekcha devoniga yozgan so‘zboshisida qayd etib o‘tadi. Nodira mumtoz she‘riyatning mavjud hamma janrlarida qalam tebratdi. Uning o‘zbekcha va forsiycha-tojikcha g‘azallari aruzning turli vaznlarida 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajmda yaratilgan. Shoira g‘azallarining asosiy qismi 7—9 baytlidir. Nodira mumtoz adabiyot an‘analarini qunt va ixlos bilan davom ettirgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Nodira o‘z g‘azallarida ko‘proq «mukarrar» (so‘zning takrorlanib kelishi) va «qo‘sh mukarrar» usullaridan foydalangan. Asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tadrij, tashxis, intoq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo‘llangan. Nodira fors-tojik tilida ham go‘zal, ta‘sirchan she‘rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o‘zbek tilidagi g‘azallaridek yuksak darajada yozilgan bo‘lib, shoira ijodini yana ham keng va to‘laroq o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Nodira ijodiga bo‘lgan qiziqish shoira hayotlik davridayoq boshlangan. Mashhur shoira Dilshod (1800—1905) Nodiraga maxsus g‘azallar bag‘ishlab, uni «ilm-adab va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlari g‘azalxoni, shakar sochuvchi bulbul» deb ta‘riflaydi. Nodira g‘azallariga juda ko‘p shoirlar naziralar yozganlar, muxammas bog‘laganlar. O‘zbek adabiyotida va sahnada Nodiraning badiiy obrazi yaratildi. H. Razzoqovning «Nodira», Turob To‘laning «Nodirabegim» musiqali dramalari sahnalashtirildi. Komil Yormatov va M. Melkumovlarning stsenariysi

asosida «Nodirabegim» filmi yaratildi. Shoiralar asarlari rus va boshqa chet tillarga tarjima qilingan. Fazallari o'zbek maqomlari va xalq kuylariga solingan. O'zbekistonning shahar va qishloqlarida ko'plab ko'chalar, kinoteatr, maktab va kutubxonalar Nodira nomi bilan yuritiladi.

“Yorning vasli emas ozorsiz” g‘azali
Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.

Ul parivash vaslidin bo‘ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz.

Yor uchun ag‘yor dardin tortaman,
Ko‘rmadim bir yorni ag‘yorsiz.

Tan buzuldi, endi rohat qolmadi,
Soya paydo bo‘lmadi devorsiz.

Berma nisbat qaddiga, ey bog‘bon,
Sarvdur bu bog‘ aro raftorsiz.

Nodira ahvalidin ogoh bo‘ling,
Ey musohiblar, qolmish yorsiz.

G‘AZAL TAHLILI

1. Mavzu

G‘azalda ishqiy iztirob, hijron (ayriliq) azobi va sadoqat muammosi yoritilgan. Shoiralar yor vasliga yetishish mashaqqatli ekanini, muhabbatda doim iztirob borligini tasvirlaydi.

2. G‘azalning g‘oyasi

Asarning asosiy g‘oyasi shuki: haqiqiy sevgi hech qachon ozorsiz bo‘lmaydi, muhabbat yo‘li doim sinov va dard bilan kechadi. Inson sevgisiz baxt topa olmaydi.

3. Obrazlar tahlili

Yor — ideal, mukammal sevgili timsoli.

Ag‘yor — hasadgo‘ylar, raqiblar, muhabbatga to‘sqinlik qiluvchi kuchlar.

Bog‘, bog‘bon, sarv — go‘zallik, qomat va yor timsolining badiiy obrazlari sifatida ishlatilgan.

4. Badiiy san’atlar

G‘azalda ko‘plab badiiy vositalar qo‘llangan:

Tashbeh — yor qaddi sarv daraxtiga qiyoslangan.

Isti'ora — “gulshan”, “gul”, “xorsiz” soʻzlari bilan muhabbat manzarasi yaratilgan.

Takror — “...siz” radifi sheʼr ohangdorligini oshirgan.

5. Shoiraning ruhiy holati

Shoira oʻzini yolgʻiz, tark etilgan, maʼyus holatda tasvirlaydi. Uning qalbida sogʻinch, armon va umidsizlik hissi kuchli.

6. Xulosa

Bu gʻazal muhabbat yoʻlida tortilgan dardlar, vafosiz yor va hijron iztiroblarini chuqur ifodalagan asardir. Shoira muhabbatsiz hayotni maʼnosiz deb biladi.

XULOSA

Nodirabegim ijodi oʻzbek mumtoz adabiyotining eng nozik, eng taʼsirchan sahifalaridan biridir. Uning sheʼriy merosida ayol qalbining iztiroblari, muhabbat kechinmalari, hijron azobi va sadoqat tuygʻulari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Shoiraning gʻazallari nafaqat shaxsiy tuygʻularni, balki jamiyatdagi maʼnaviy muammolarni ham yoritgan bebaho adabiy yodgorlikdir.

“Yorning vasli emas ozorsiz” gʻazali Nodira ijodining yorqin namunasi boʻlib, unda muhabbatning mashaqqatli yoʻli, sadoqat va ayriliq motivlari chuqur ramziy ifodalarda ochib berilgan. Shoira yor timsoli orqali inson qalbidagi sogʻinch, yolgʻizlik va armon tuygʻularini real hayotiy kechinmalar bilan uygʻunlashtiradi. Agʻyor, gulshan, sarv kabi timsollar esa uning badiiy tafakkuri naqadar teranligini koʻrsatadi.

Umuman olganda, Nodira ijodi ayol qalbining faqat romantik iztiroblarini emas, balki maʼrifatparvarlik, vatanparvarlik va insoniy fazilatlarini ham oʻzida mujassam etgan yuksak ijodiy maktabdir. U nafaqat shoira, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etgan maʼnaviyatparvar siymo sifatida ham milliy adabiyotimiz tarixida muhim oʻrin egallaydi. Nodirabegim qoldirgan adabiy meros bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan boʻlib, u sevgi, sadoqat va sabr haqida abadiy ibrat manbai boʻlib qoladi.